
“O‘zkimyosanoat” AJda CSCEC korporatsiyasi rahbariyati bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi

// 12 May 2026 yil
https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-ajda-cscec-korporatsiyasi-rahbariyati-bilan-u



“O‘zkimyosanoat” AJ Boshqaruvi raisi Xitoyning yirik investitsiya-qurilish korporatsiyalaridan biri — “China State Construction Engineering Corporation” (CSCEC) kompaniyasi prezidenti yordamchisi, shuningdek, China Construction Fifth Engineering Division direktorlar kengashi raisi Tyan Veygo boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuv o‘tkazdi

Uchrashuv davomida tomonlar kimyo sanoatida o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda qo‘shma investitsiya loyihalarini amalga oshirish imkoniyatlarini muhokama qildilar. Muloqot chog‘ida sanoat infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish va istiqbolli loyihalarni amalga oshirishda xalqaro tajribadan samarali foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.



Ma’lumot uchun, **China State Construction Engineering Corporation (CSCEC)** — Xitoy Xalq Respublikasi hukumati boshqaruvi ostida faoliyat yurituvchi dunyodagi eng yirik investitsiya-qurilish konglomerati hisoblanadi. Kompaniya Xitoydagi yirik infratuzilma obyektlari hamda global **“Bir makon, bir yo‘l”** tashabbusi doirasida amalga oshirilayotgan xalqaro loyihalarning asosiy ijrochilaridan biri sifatida tanilgan.



Uchrashuv yakunlari bo‘yicha tomonlar o‘zaro hamkorlikni yanada kengaytirish va kelgusida aniq amaliy loyihalarni birgalikda ishlab chiqishga qiziqish bildirdilar.